O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Fitoreofillar, sekin va tez oqar suv havzalari qirg‘og‘ida, suv o‘tlar orasida, oqadigan buloq va chashma toshlari ostida hamda ustida yashaydigan L. auricularia, L. oblonga turlari kiradi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra Nurota tog‘lari qorinoyoqli suv mollyuskalari ekologik guruhlari turlar soni jihatidan fitofil turlar ko‘pchilikni tashkil etib, u tarkibiga 6 ta tur kirib, foizga nisbatan 40%, krenofil ekologik guruhi tarkibiga 5 ta tur kirib, u 33,3%, telmatofil vafitoreofil ekologik guruhi tarkibiga 2 tadan tur mansub bo‘lib, foizga nisbatan 13,3% ni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qudratov J.A. Nurota tog‘lari qorinoyoqli mollyuskalari taksonomiyasi,bioekologik xususiyatlari, tarqalishi va ahamiyati. Biologiyafanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)diss.avtoreferati Toshkent. 2018. 44 b.
2. .Pazilov A. Noyobva yo‘qolibborayotganquruqlik mollyuskalari // Problemы biologicheskie i ekologicheskie: Mejd. nauchn-prakt. konf.- Tashkent, 2001b. S.260 – 261.
3. Pazilov A. Zoogeograficheskaya struktura faunы nazemnыx mollyuskov Ferganskoy dolinы i okrujayuщix yeyo gornыx xrebtov // Vestnik GulGU. – 2001 v. - №1.-S. 78 – 81.
4. Pazilov A. Zarajennost nazemnыx mollyuskov lichinkami protostrongilid v predgornыx zonax Zarafshanskogo xrebta // Parazitologiyaningdolzarbmuammolarigabagishlangan Respublika ilmiy-amliykonferensiyasiningmateriallari. - Qarshi, 2003. B 66-68.
5. Izzatullaev Z.I. Mollyuski vodnыx ekosistem Sredney Azii. 2018. Tashkent-232s.
6. Izzatullaev Z.I. Fauna mollyuskov vodnыx ekosistem Sredney Azii i sopredelnыx territoriy. - Tashkent, 2019.-326 s.
7. Izzatullaev Z., Qudratov J. Sostav faunы i zoogeograficheskie svyazi bryuxonogix mollyuskov (Mollusca, Gastropoda) Nuratinskogo xrebta. Uzb. Biol. jurn., 2012. № 4. – S. 33 – 35.
8. Izzatullaev Z., Qudratov J. Vidovoy sostav, ekologicheskie kompleksы, rasprostranenie i oxrana bryuxonogix mollyuskov rodnikov i klyuchey Nuratinskogo xrebta. Uzb. biol, jurn. 2012, № 2. – S. 31 – 35
9. Izzatullaev Z., Qudratov J. Faunisticheskiy sostav, ekologicheskie kompleksы i xozyaystvennoe znachenie bryuxonogix mollyuskov (Mollusca, Gastropoda) gornыx postbiщ Uzbekistana. Uzb.biol.jurnal., 2016. №3. –S. 39 – 41.
10. Izzatullaev Z., Qudratov J. Bioraznoobrazie mollyuskov kyarizov Uzbekistana Aktualnыe voprosы soxraneniya bioraznoobraziya severnogo Tyan – shanya., 2017. –S. 177 – 179.

ETNIK IDENTIKLIKNING SHAXS PSIXIK RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

ps.f.f.d. Norbekova Barno Shavkatovna,
R.O.Tulasheva

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnik identiklikning shaxsning ruhiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi.Etnik o‘ziga xoslik shaxsning psixalogik va ijtimoiy tuzilishining asosiy jihati bo‘lib, uning o‘zini o‘zi his qilishi,dunyo qarashlari va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini shakillantiradi. Maqolaning maqsadi, etnik identiklikning shaxsiy ruhiy rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish va u madaniy va abadiy qadriyatlarga asoslangan elementlarni o‘z ichiga oladi .

Kalit so‘zlar: psixik rivojlanishi, etnik identiklik, etnik guruh, etnik xususiyat, xarakter, shaxs kansepsiyasi, etnospsixalogiya, antropologiya, etnos madaniyat.

Zamonaviy jamiyatdagi madaniy xilma xillik tobora ijtimoiy ziddiyatga aylanib bormoqda. Etnik jamoalarning ijtimoiy va madaniy integratsiyallashuv muammolari bevosita etnik va madaniy identifikatsiya jarayonlari bilan bog‘liq, shuning uchun zamonaviy ko‘p millatli muhitda etnik jamoalarning o‘z o‘zini identifikatsiyalash jarayonlarini o‘rganish kerak. Dj.Finning fikricha etnik identiklik-bu o‘zini etnik guruh a’zosi sifatida anglash, o‘z etnik kelib chiqish haqida tuzilgan va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xabardorlikka taaluqli dinamik ko‘p o‘lchovli konstruksiyadir. Etnik identiklik shaxsning malum bir guruhga mansubligini ko‘rsatgichi bo‘lib uning vakillariga xos fazilatlar mavjudligini bilish ta’lim va faoliyat sohasidagi etnik jihatdan aniqlangan afzalliklarni baholash bilan belgilanadi. Etnik identiklikning psixalogik ma’nosi milliy o‘ziga xoslik eng muhim belgilari til, kelib chiqish, turmish tarzi, an’anaviy madaniyati, qadriyatlar meyorlari, tarixiy xotira, xarakter, tashqi ko‘rinishdir.

O‘zining etnik guruhlarga mansubligini aniqlash orqali hayotda qo‘llab quvvatlovligini yo‘qotgan yosh avlod ijtimoiy notinchlik va nochorlik holatidan chiqish yo‘lini izlaydi, psixalogik xavfsizlik va barqarorlikni qo‘lga kiritadi o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi.Yagona farqlash identifikatsiya jarayoni ijtimoiy o‘ziga xoslikni shakillantirishga olib keladi, bu umumiy ma’noda o‘z guruhini boshqa ijtimoiy obyektlar bilan taqqoslash jarayonining natijasidir. Aynan ijobiy ijtimoiy o‘ziga xoslikni izlashda shaxs yoki guruh o‘zini o‘zi belgilashga boshqalardan ajralib turishga o‘z xarakatlarini tasdiqlashga intiladi. Etnik identiklikning tuzilishi haqida gapirganda,tadqiqotchilar ongli va ongsiz darajalar (G.U.Saldatova), kongnitiv va affektiv (M.Barret) mavjudligini takidlaydilar.

Ijtimoiy madaniy o‘zgarishlar dinamikasida etnik guruhlarning jamoviy xotirasi muhim rol o‘ynaydi, chunki uning jamiyatdagi sharoitlari va funksialari etnik jamoaning o‘ziga xosligini shakllantirishga ta’sir qiladi. Etnik identiklik shaxs psixik rivojlanishiga ta’siri mavzusi psixologlar, etnologlar, sotsiologlar, antropologlar va boshqa soha mutaxasislar diqqatini jalb qilgan. Etnik identiklik psixologik kategoriya bo‘lib uning mohiyati malum bir etnik madaniy jamoaga mansubligini anglashdan iborat uning tuzilishida ikkita asosiy komponent ajralib turadi birinchidan kongnitiv, ikkinchidan affektiv.

Kongnitiv bu (bilim o‘z guruhining xususiyatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar va ma’lum xususiyatlar asosida o‘zini uning a’zosi sifatida anglash. Affektiv (o‘z guruhini fazilatlarini baholash, a’zolikka munosabat).

Odatda etnopsixologik tadqiqotlar amaliy ehtijoylar bilan belgilanadi, olimlarning ko‘p yillik izlanishlari natijasida etnopsixologik tadqiqotlarning quydagi turlari mavjud: 1.Standart; 2.Madaniyatlararo; 3. Tarixiy. Bugunga kelib bolaning etnik madaniy rivojlantirish bosqichlari yosh chegaralari belgilangan. Etnik madaniy imtiyozlar 9-10 yoshda juda muhim etnik madaniy bilimlar asosida shakllanadi. Etnopsixalogiyaning rivojlanish tarixida birinchilardan Gipokrat edi, faylasuf odamlarning jismoniy va aqliy jihatdan farqlanishi geografik joylashuv va iqlim sharoiti bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Etnopsixologik tadqiqotlarda , “Emic” va “Etik” yondashuvlar ham mavjud, insonning individual hayotining son-sanoqsiz holatlaridan tashqari, bolaning etnik madaniy o‘ziga xosligini shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ijtimoiy muhit va guruhlararo munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadigan bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi eng muhimi quydagilar ajratilib ko‘rsatiladi.

1) ijtimoiy siyosiy sohadagi giloball o‘zgarishlar va ular bilan bo‘g‘liq millarlararo munosabatlar.

2) etnik guruhning bir xilligi- birinchi guruhning omillariga kelsak, ijtimoiy sohadagi muhim voqealar butun bir xalqning etnik-madaniy o‘ziga xosligini faollashtirishga yordam berishi mumkin. So‘ngi yillarda tadqiqotchilar etnik o‘ziga xoslikni shakllantirishning yana bir jihati shaxsda etnik xususiyatlarning o‘zgarmasligi va barqarorligi tuyg‘usining paydo bo‘lishi, etnik doimiyylikga alohida e’tibor qaratdilar. Binobarin etnik o‘ziga xoslik shaxsning psixologik va ijtimoiy tuzilishining asosiy jihati bo‘lib uning o‘zini o‘zi his qilishi dunyoqarashlari va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini shakllantiradi. U madaniy adabiy qadriyatlarga asoslangan elementlarni o‘z ichiga oladi ular orqali shaxslar o‘z etnik guruh va turli etnik kelib chiqishi bilan bog‘lanadi. Etnik o‘ziga xoslik shaxsning o‘zini idrok etishiga o‘zini namoyon qilishiga dunyoni tushinishga va u shaxslararo munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib odamlarning do‘stlar, tanishlar ishonchga asoslangan aloqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari etnik o‘ziga xoslik chuqur bo‘lib shaxsning hissiy, aqliy va jismoniy farovonligiga ta’sir qiladi. Shu sababli ushbu maqola etnik o‘ziga xoslikning shaxslarning psixik farovonligi o‘zini o‘zi anglashi va shaxslararo dinamikasiga ko‘p qirrali ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Shunday qilib bolaning etnik madaniy o‘ziga xosligi aniqroq tushilinadi va agar bola ko‘p millatli muhitda yashasa guruhlar o‘rtasidagi madaniy farqlar haqidagi bilimlar ertaroq hosil qilinadi.

Etnik identiklikning shaxs psixik rivojlanishiga ta’siri mavzusi ko‘p tomonlama o‘rganilgan va bu sohada ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Olingan tadqiqotni emperik natijalar tahliliga asoslanib etnik identiklikning talaba-yoshlarda diferensial ahamiyat kasb etishi ularning o‘z millati haqidagi mavjud tassavvurlari etnik stereotip va ustanovkalarning rivojlanganlik darajasi an’ana va urf- odatlarini o‘zlashtirganlik ko‘rsatkichi kabi omillar ta’sirida vujudga kelishi mumkin degan xulosalarga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreva G.M “Ijtimoiy bilish psixologiyasi” 997.C 112.

2.Malygina I.V “Etnomadaniy o‘ziga xoslik “(ontologiya, morfologiya, dinamika) Falsafa fanlar do‘ktiri Sci.M 2005

3. Mamatov M.M “Etnopsixologiya” -Toshkent, 2006

4.Phinney J. “O‘smirlarda etnik o‘ziga xoslik”, Tadqiqotlarni ko‘rib chiqish Psixologik axborotnoma//1990.(108)3.b

5. Romanova O.L. “Bolalar va o‘smirlarda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish “1994. 449-510b

SUHBATDOSHNI IDROK ETISHDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

Norbekova Barno Shavkatovna,
S. Mardonov
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning shakllanish jarayonida o‘zgalar bilan bo‘ladigan muloqotning ahamiyati va suhbatdoshni idrok etishdagi o‘ziga xos mexanizmlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Idrok, ijtimoiy persepsiya, muloqot, psixologiya, identifikatsiya, empatiya, refleksiya, stereotipizatsiya, muloqotning ahamiyati.

Insoniyat paydo bo‘libdiki bir birlari bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Muloqot jarayoni orqali munosabatga kirishib axbarot almashinadi. Hech shubha yo‘qki, hayotimiz davomida jamiyatning turli xil qatlamlariga oid kishilar bilan bevosita yoki bilvosita muloqot qilamiz. Muloqot mobaynida suhbatdoshimizni anglashga, uning hissiyotlariga ta'sir o‘tkazishga, uni biror maqsadga yo‘naltirishga harakat qilamiz. Ammo, doim ham ishimiz o‘xshayvermaydi. Bunga asosiy sabab, muloqot mobaynida o‘ziga xos texnikalardan ko‘p ham foydalanavermaymiz. Balki, biror bir so‘zlashuv texnikasining samarali ishlab berishiga ishonchsizlik bilan qaraymiz. Ammo, har narsaning sir-sinoati bo‘lgani kabi, suhbat jarayonida ham ma'lum bir qonuniyatlar amal qiladi. Ularni chuqur o‘rganish bilan suhbatdoshning ko‘ngliga yo‘l topishimiz mumkin bo‘ladi. Darhaqiqat, insoniyat antik davrlardan buyon "Qanday qilib kishilarga ta'sir o‘tkazish mumkin?", degan savolga ma'nili javob topishga qiziqib kelgan.

Inson shunday mo‘jizaki, u murakkab psixik jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo‘la oladi. Atrofida ro‘y berayotgan hodisalarni baholay oladi. Jumladan, inson tashqi muhitdan keladigan axborotlarni sezgisi bilan qabul qiladi. Turli xil sezgilarning ongda yaxlit obraz hosil qilishi esa idrok jarayonini yuzaga keltiradi. Qo‘zg‘atuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan segilardan farqli o‘laroq, idrok narsalarni umuman, uning hamma xususiytlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yig‘indisidan iborat tarzda emas, balki hissiy bilishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi [1]. Ammo, kishilarni idrok etish predmetlarni idrok etishdan ko‘ra ancha murakkab jarayondir. Chunki, kishining xulqi o‘zgaruvchan hisoblanib, har daqiqada o‘zgacha qiyofa kasb etishi mumkin. Suhbatdosh tarafidan kelayotgan